

MINTAQA IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGIGA INVESTITSİYALAR TA'SIRINING EKONOMETRIK TADQIQI

Masharipova Xosiyat Matrasulovna

Mamun universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada mintaqaning raqobatbardoshlik mezonlari va ularga investitsiyalarning ta'siri bilan bog'liq izlanishlar o'rganilgan. Jumladan, YAHM, qurilish va xizmatlar sohalari, eksport kabi mezonlarga investitsiyalarning ta'siri ekonometrik tadqiq qilingan. Olingan natijalarga muvofiq mintaqada raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yalpi hududiy mahsulot; qurilish; xizmatlar sohasi; eksport; investitsiya; raqobatbardoshlik; mintaq; ekonometrik modellar.

Аннотация

В статье рассматриваются исследования, связанные с критериями региональной конкурентоспособности и влиянием на них инвестиций. В частности, эконометрическим методом изучалось влияние инвестиций на такие критерии, как ВРП, строительство и сфера услуг, экспорт. В соответствии с полученными результатами были разработаны предложения по повышению конкурентоспособности региона.

Ключевые слова: валовой региональный продукт; строительство; сфера услуг; экспорт; инвестиции; конкурентоспособность; регион; эконометрические модели.

Abstract

The article examines studies related to the criteria of regional competitiveness and the impact of investments on them. In particular, the econometric method was used to study the impact of investments on such criteria as GRP, construction and services, and export. In accordance with the results obtained, proposals were developed to improve the competitiveness of the region.

Key words: gross regional product; construction; services; export; investments; competitiveness; region; econometric models.

KIRISH

Mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda muhim manba va omillarni aniqlash muhim masaladir. Bundan mintaq; raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ta'sir darajasini aniqlash uchun aksariyat tadqiqotlarda sabab va oqibat bog'lanishlar statistikasi, jumladan, regressiya tahlilidan foydalaniladi. Mintaqalar raqobatbardoshligiga omillar ta'sirini baholashda dastlab natijaviy o'zgaruvchilarni aniqlab olish lozim. Jumladan, raqobatbardoshlik natijaviy ko'rsatkichlarining eng asosiysi YAHM va uning real darajasi hisoblanadi. Shunday bo'lsada, mintaq; soha va tarmoqlarining rivojlanish darajasi ham muhim. Ya'ni,

mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, uning barqarorligi hamda raqobatbardoshligini yaxlit holatda YAHM orqali tavsiflanadi. Lekin, ushbu kattalik sohalar hisobiga shakllanishini inobatga olib, tarmoqlarning rivojlanish holatini baholash orqali mintaqa hamda hududlarni tarmoqlar nuqtayi nazaridan raqobatbardoshligini aniqlash talab etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda mintaqada yaratilgan YAHMni raqobatbardoshlikning asosiy mezon sifatida tanlab olib, unga bir qator omillar, xususan investitsiya ta’siri qarab o‘tilgan. Jumladan, olingan ekonometrik tadqiqot natijasida ularning ijobiy bog‘liqligi aniqlangan[1]. Shu bilan birga, boshqa tadqiqot ishida mintaqa raqobatbardoshligini tadqiq etishda investitsiya va YAHMning miqdoriy bog‘liqliklari regression tahlil qilinib, ekonometrik modeli ishlab chiqilgan. Natijada, YAHMning 1 shartli birlikka o‘sishi hisobiga investitsiyaning 0,339 shartli birlikka o‘sishi aniqlangan[2]. R.Abdullayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mintaqa raqobatbardoshligiga investitsiyaning ta’siri qarab o‘tilgan. Shuningdek, muallif mintaqa raqobatbardoshligi sifatida natijaviy kattaliklar de YAHMni alohida qarab o‘tgan[3]. Tadqiqotlarda respublika darajasida raqobatbardoshlikka investitsiyalarning ta’siri korrelyatsion-regression tahlil qilingan. Olingan natijalarga muvofiq investitsiyalar iqtisodiyot raqobatbardoshligiga, uning natijaviy kattaliklariga, xususan YAIMga ijobiy ta’siri aniqlangan[4]. Mualliflar tomonidan mintaqalarning rivojlanishiga, ularning iqtisodiy salohiyati hamda raqobatbardoshligini ortishiga investitsiyalar ta’siri baholangan[5]. Demak, tadqiqotlar asosida olingan xulosalarda mintaqalar uchun raqobatbardoshlik mezon YAHM bo‘lib, uning asosiy omili investitsiya hisoblanadi.

Shu bilan birga, izlanishlarda ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarda qurilish raqobatbardoshligi moliyaviy, texnik, tashkiliy jihatlar asosida baholangan[6]. Shu bilan birga, boshqa manbada qurilish tarmog‘iga ta’sir qiluvchi manbalar sifatida investitsiya-qurilish ishlari ishtirokchilari, ularning investitsiyalari ko‘lami baholangan[7]. Soha va tarmoqlar rivojlanishi, ularning raqobatbardoshligiga qator omillar ta’siri tahlil qilingan. Ular ichida investitsiyalarga ham e’tibor qaratilgan[8]. Muallif tadqiqoti davomida raqobatbardoshlikni natijaviy ko‘rsatkichlari sifatida soha va tarmoqlarni qarab o‘tgan. U izlanishlari davomida investitsiyalarning ta’sirini ham qarab o‘tgan. Shuningdek, ular o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ochib bergan[9].

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari sabab dastlab mintaqa uchun raqobatbardoshlikning mezonlarini tanlab olamiz. Jumladan, Xorazm viloyatining iqtisodiyoti uchun raqobatbardoshlik mezonlari sifatida avvalgi bob va paragraflarga asoslanib quyidagilarni tanlab olamiz: YAHM: ushbu ko‘rsatkich mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligining asosini ifodalovchi yaxlit kattalik hisoblanadi va umumiy mintaqa raqobatbardoshligini aniqlash, uni boshqa viloyatlar bilan solishtirish imkoniyatini beradi; Qurilish tarmog‘i: Xorazm viloyati tuman va shaharlarida ishlab

chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmaga berilgan e'tibor, ularni kengaytirish, bunyodkorlik bilan bog'liq olib borilayotgan faoliyat natijasi. Ayniqsa, turizm salohiyatidan samarali foydalanishda tegishli infratuzilma obyektlarini barpo etishga katta investitsiya yo'naltirilmoqda. Bu jihatdan mintaqaning o'ziga xosligi keng ko'lamli qurilish ishlari bilan bog'liq. Shu bois, ushbu soha mintaqaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi; Xizmatlar sohasi: Xorazm viloyati xizmatlar sohasini kengaytirish bo'yicha bir qator imkoniyatlarga ega. Birinchidan, mintaq turizm xizmatlari ko'lamini oshirish uchun yetarlicha resurslarga ega. Ikkinchidan, mintaq O'zbekiston Respublikasining Yevropaga chiqish yo'li ustidagi viloyat bo'lib, unda transport xizmati, logistika tizimini kengaytirish istiqbolli tarmoqlar hisoblanadi. Uchinchidan esa, Xorazm viloyati qo'shni respublikalarga, xususan, Turkmanistonga chegaradosh bo'lib, xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish imkoniyatini beradi. Demak, yuqoridagi holatlarni hisobga olsak, natijaviy ko'rsatkichlar uchun muhim sanalgan omillarni tanlab olishimiz zarur. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mintaq va uning hududlari raqobatbardoshligini tahlil qilishda yuqoridagi natijaviy ko'rsatkichlarni baholaymiz. Lekin, ular omillarini barcha natijaviy ko'rsatkichlar uchun bir xil tanlab olamiz. Chunki, umumiy holda mavjud omilning mintaq raqobatbardoshligini barcha mezonlariga ta'sirini qarab o'tamiz. Bu holat biz uchun mintaq raqobatbardoshligining yaxlit va bir butunlikda oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Buning uchun asosiy e'tiborni ikki manbaga, mehnat va investitsiyaga qaratamiz. Shunday bo'lsada, iqtisodiyotda mehnat omilining shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt uchun statsionar hisoblanadi. Bu esa, o'zgaruvchan hisoblangan investitsiyalarning mintaq raqobatbardoshligiga ta'sirini baholashni talab etadi. Chunki, mehnat omilini shakllanishi, uning malaka-ko'nikmasi, sifati va soni davlatning uzoq yillik dasturlari asosida amalga oshiriladi. Lekin, investitsiya omili bilan bog'liq davlat siyosati nisbatan qisqa davrlarni o'z ichiga olib, u iqtisodiyotga ta'siri ham qisqa vaqt oralig'ida samara beradi.

Bunda, ta'sir qiluvchi omil sifatida investitsiyani tanlab olsak, natijaviy kattaliklar sifatida yuqorida keltirilgan YAHM, qurilish, xizmatlar rivojlanishini qarab o'tamiz. Shuningdek, soha va tarmoqlarning rivojlanishi hisobiga aholi moddiy holati, daromadi va hududning turizm bazasi ham o'zgaradi. Dastlab, iqtisodiyot uchun muhim sanalgan yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga investitsiya ta'sirini aniqlaymiz. Investitsiyalar soha va tarmoqlarning ishlab chiqarish ko'lamini o'zgarishida ijobiy ta'sirga ega bo'lmoqda. Shu bois, investitsiya va mintaq raqobatbardoshligi natijaviy ko'rsatkichlarining juft regressiyalarini qarab o'tamiz. Raqobatbardoshlikning natijaviy kattaligi sifatida YAHMning real darajasini olamiz va quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan tenglikni ishlab chiqamiz.

$$YaIM_t = a * INV_t + e \quad (1)$$

Bunda: $YaIM_t$ – mintaqada yaratilgan yalpi hududiy mahsulot real hajmining o'sish sur'ati;

INV_t – mintaqaga kiritilgan investitsiyalar real hajmining o'sish sur'ati;

a – investitsiyaning yalpi hududiy mahsulotga ta'sirchanligini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyenti.

Ushbu ekonometrik model asosida amalga oshirgan korrelyatsion-regression tadqiqotlarimiz asosida quyidagi tenglikni ishlab chiqdik:

$$YaIM_t = 0,028 * INV_t + 103,2 \quad (2)$$

Bunda, YAHM o'zgarishi bilan investitsiya o'sish sur'ati o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlandi. Jumladan, investitsiyalarning 10 foizga o'sishi YAHMning boshqa omillar ta'siriga ega bo'lmagan sharoitda 2,8 foizga o'sishni ta'minlamoqda. Bu esa, investitsiya iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ifodalaydi. Demak, Xorazm viloyati raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalar ko'lamiga, uning ijobiy o'zgarishiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Shu bilan birga, mintaqaning investitsiya siyosatini ishlab chiqish, unda nafaqat ko'lamiga, balki viloyatning tuman va shaharlari kesimidagi taqsimotiga ham e'tibor berishimiz zarur. Bunda, ushbu hududning ustuvorliklarini, istiqboldagi rivojlanish zaxiralarini, o'sish nuqtalarini hisobga olamiz. Bunda, mintaqa investitsiya siyosatini ishlab chiqishda uning soha va tarmoqlar kesimidagi holatini, ularga bo'lgan kapitalning ta'sirini ham tahlil etamiz. Jumladan, mintaqada qurilish tarmog'ining istiqboldagi rivojlanishiga investitsiya ta'sirini tadqiq qilamiz. Xorazm viloyati va uning hududlarida joriy vaqtda keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Viloyatda qurilish tarmog'ining oxirgi yillardagi o'sish sur'ati ijobiy bo'lib, o'rtacha 8,3 foizga teng bo'lgan. Shuni ham alohida ta'kidlaymizki, mintaqada hududlari kesimida barpo etilayotgan qurilish ishlari tarkibida yangi ishlab chiqarish korxonalari va xizmat ko'rsatish obyektlari ham kengayib bormoqda. Ya'ni, ushbu yo'nalishda mavjud salohiyatni oshirishdagi investitsiyalar ko'lami o'smoqda. Jumladan, mintaqaning turizm salohiyati yuqori bo'lgani bois, keng ko'lamli turizm infratuzilmasi hamda zamonaviy obyektlar qurilmoqda. Shu bilan birga, mintaqada mashinasozlik va asbobsozlik bo'yicha respublikada yetakchi viloyatlardan biri. Shu bois, ushbu sanoat sohasida ham qurilish ishlari yuqori ko'lamda olib borilmoqda. Bu esa, qurilish industriyasi bilan investitsiyalarning regression bog'liqligini hisob-kitob qilishimizni talab etadi. Bunda quyidagi ko'rinishga ega modelni tuzib oldik.

$$QUR_t = b * INV_t + e \quad (3)$$

Bunda: QUR_t – mintaqada yaratilgan qurilish mahsuloti real hajmining o'sish sur'ati;

b – investitsiyaning qurilishga ta'sirchanligini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyenti.

Mazkur tenglikni ekonometrik tahlil qilish asosida quyidagi modelni hosil qildik:

$$QUR_t = 0,35 * INV_t + 76,4 \quad (4)$$

$$(R^2=0,55; P\text{-}qiy.(x)=0,038)$$

Jumladan, olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida, ular o'rtasida yuqori bog'liqlikni aniqladik. Jumladan, boshqa omillar ta'siriga ega bo'lmagan sharoitda qurilish o'sishini 1/3 qismi investitsiya hisobiga shakllanmoqda. Bu holatni 2 jihat bilan asoslaymiz. Birinchidan, yuqorida aytib o'tganimizdek, qurilish sohasi boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori kapital talab qiladigan soha hisoblanadi. Ikkinchidan esa, mintaqaning qurilish salohiyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Bu jarayon mintaqada va

uning hududlarini ishlab chiqarish raqobatbardoshligini ham ifodalaydi. Shuningdek, qurilishning kengayishi, yangi turizm obyektlarini barpo etilishi hisobiga xizmatlar ko‘lami ham o‘smoqda. Jumladan, viloyatda qurilgan obyektlarning qariyb yarmini xizmatlar sohasi obyektlari tashkil qiladi. Ya’ni, xizmatlar sohasi obyektlari tarkibiy tuzilishida yetakchi o‘rin chakana savdoga tegishli. Bu esa, mazkur sohaning yuqori qo‘shilgan qiymatli yo‘nalishlarini kengaytirishga e’tibor qaratishni talab qiladi.

Bunda, ishlab chiqarish infratuzilmalarining o‘rni ham yuqori hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishni rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchilikni joriy qilish, uning institutsional asosini takomillashtirish lozim. Shunday bo‘lsada, soha rivojlanishi bilan bog‘liq omillar ekonometrik tadqiqini o‘tkazamiz. Chunki, uning asosida xizmatlarni kengaytirish manbalarini aniqlash yotadi. Olib borilgan tadqiqotlarimizda moliyaviy omillar muhim bo‘lib, investitsiyalarning ta’siri ijobiy natijani ifodalaydi. Demak, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasini ifodalashicha mintaqalar rivojlanishini ta’minlashda ustuvor soha sifatida turizmni qarab o‘tamiz.

$$XIZ_t = c * INV_t + e \quad (5)$$

Bunda: XIZ_t – mintaqada xizmatlar real hajmining o‘sish sur’ati;

c – investitsiyaning xizmatlar sohasiga ta’sirchanligini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyenti.

Natijada, quyidagi ekonometrik tenglikni yaratdik:

$$XIZ_t = 0,11 * INV_t + 101,8 \quad (6)$$

($R^2=0,37$; $P\text{-qiym.}(x)=0,19$)

Ya’ni, viloyatga yo‘naltirilgan investitsiyalarning 1 foizga o‘sishi xizmatlarni 0,11 foizli real o‘sishini ta’minlamoqda. Shunday bo‘lsada, ushbu regressiya koeffitsiyenti yetarli deb bo‘lmaydi. Buning kichik elastiklik qiymatiga egaligi – samaradorligi nisbatan yuqori bo‘lmagan xizmatlar sohasining yetakchi ulushni tashkil etayotganligidan dalolat beradi. Shu bois, moliyaviy xizmat turini kengaytirishimiz lozim. Ayniqsa, viloyatda ko‘chmas mulk savdolarini rivojlantirish, rekreatsion salohiyatidan maqbul va samarali foydalanish lozim. Shuningdek, viloyat qo‘shni Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradoshligi, Yevropa bozoriga chiqishdagi asosiy transport tuguni ekanligi bois logistika xizmatini ham rivojlantirish zarur. Bu esa, mintaqaning eksport salohiyati o‘sishini, bular hisobiga raqobatbardoshlik ortadi.

Bizga ma’lumki, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, uni barpo etish ma’lum davr hisobiga shakllantiriladi. Shuningdek, sohalar raqobatbardoshligini oshirishda eksport ko‘lami ham muhim sanaladi. Shu bois, iqtisodiyotdagi eksport holatini omilli tahlil qilamiz. Shuni alohida ta’kidlaymizki, ichki bozorlarga nisbatan tashqi bozorda mahsulot sotish ustuvor hisoblanadi. Xorazm viloyatida eksportning tovarlar tarkibida yetakchi ulush yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga ega. Buning asosiy sababi, viloyatda joylashgan mashinasozlik sanoati va unga ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning mavjudligi hisoblanadi. Shu bilan birga, aksariyat eksportchi korxonalar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqaruvchilar hisobiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, bir qator tadqiqotlarda mintaqa raqobatbardoshligining mezonini sifatida eksport ko'rsatkichi tanlab olinib, unga investitsiya kabi omillarning ta'siri o'rganilgan. Shu bois, juft regressiya modelini ishlab chiqamiz.

$$EXP_t = d * INV_t + e \quad (7)$$

Bunda: EXP_t – mintaqada amalga oshirilgan eksport real hajmining o'sish sur'ati;

d – investitsiyaning eksportga ta'sirchanligini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyenti.

Yuqoridagi tenglikni natijaviy va omilli ko'rsatkichlarining Xorazm viloyati uchun tegishli qiymatlar asosida amalga oshirgan ekonometrik tahlillarimiz hisobiga quyidagi modelni ishlab chiqdik:

$$EXP_t = 1,02 * INV_t - 10,1 \quad (8)$$

$(R^2=0,73; P\text{-qiym.}(x)=0,003)$

Olingan natijalarni ifodalashicha, investitsiyalarning 1 foizga o'sishi eksport ko'lamini 1,02 foizga oshirmoqda. Bizga ma'lumki, raqobatbardoshlikning muhim mezonini eksport hisoblanadi. Chunki, bu mintaqada yaratilgan mahsulotlarning nafaqat ichki, balki tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ham belgilab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borgan tadqiqotlarimiz, mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari asosida uni raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagilarni taklif qilamiz: investitsiyalar ko'lamini oshirish, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'lamini oshirish; xizmatlar sohasining logistika, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash kabi turlarini kengaytirish; sanoatning qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirish; mintaqa va uning hududlarida ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida rivojlantirish; viloyatning chekka tumanlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini kengaytirish, kichik sanoat hududlarini rivojlantirish. Bunda mazkur hudud faoliyatini yo'lga qo'ygan tadbirkorlik uchun 2 yillik moliyaviy barqarorligi asosida imtiyozli kreditlash amaliyotini qo'llash; mintaqaning investitsiya siyosatini ishlab chiqishda tuman va shaharlarning o'rta hamda uzoq muddatlar uchun rivojlanish istiqbollari muvofiqligini ta'minlash; moliya muassasalari faoliyatini kengaytirish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, aholi mablag'larini banklarga samarali jalb etish orqali maqbul qayta ishlashni yo'lga qo'yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Имяреков С.М., Соколов В.Б., Тусков А.А. Анализ влияния показателей оценки региональной эффективности на показатели региональной конкурентоспособности // Московский экономический журнал №7, 2019. С. 134-144.
2. Тусков, А. А. Эконометрический анализ конкурентных позиций Пензенской области / А. А. Тусков, А. А. Голдина // Модели, системы, сети в экономике, технике, природе и обществе. – 2018. – № 2 (26). – С. 80–89.

3. Абдуллаев Р. Исследование Центра экономических исследований и реформ — инвестиционная активность регионов Узбекистана // Экономическое обозрение №11 (250) 2020 // <https://www.cer.uz/en/post/publication/issledovanie-centra-ekonomiceskih-issledovaniy-i-reform-investicionnaa-aktivnost-regionov-uzbekistana>.

4. OECD (2018), Повышение конкурентоспособности в странах Центральной Азии, OECD Publishing, Paris. <http://dx.doi.org/10.1787/9789264290129-ru>.

5. Юсупов К. Н., Янгиров А. В., Ахунов Р. Р., Токтамышева Ю. Качество инвестиций как фактор повышения воспроизводственного потенциала и конкурентоспособности регионов // Изв. Саратов. ун-та. Нов. сер. Сер. Экономика. Управление. Право. 2015. Т. 15, вып. 1.

6. Чернышова И.Г., Быковская М.В. Оценка конкурентоспособности строительной организации // Путеводитель предпринимателя. С. 149-159.

7. Зверева Е.В., Блохин М.С. Оценка конкурентоспособности строительной организации // Economy and Business: Theory and Practice, vol. 3-2 (97), 2023. С. 14-17. DOI:10.24412/2411-0450-2023-3-2-14-17

8. OECD (2018), Повышение конкурентоспособности в странах Центральной Азии, OECD Publishing, Paris. <http://dx.doi.org/10.1787/9789264290129-ru>.

9. Фомина Н.Е. Анализ конкурентоспособности и инвестиционной привлекательности национальной обрабатывающей промышленности // TRANSPORT BUSINESS IN RUSSIA. №2, 2015. С. 68-71.